

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANING IJTIMOIIY MUHITGA MOSLASHISHI

Saliyeva Nargiza Xalbek qizi

Urganch davlat pedagogika institutining Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
talabasi.

E-mail: saliyeevan@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yosh davrida bolalarning ijtimoiy muhitga qay tarzda moslashiga ko'mak beruvchi asosiy tushunchalar berilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha tarbiya yoshi, o'yin, yetakchi faoliyat, bilish jarayonlari, muloqot, asosiy psixologik yangilik.

Аннотация. В этой статье представлены основные понятия, которые помогают детям адаптироваться к социальной среде в дошкольном возрасте.

Ключевые слова: Дошкольный возраст, игра, ведущая деятельность, познавательные процессы, общение, основная психологическая новизна.

Abstract. This article provides the basic concepts that contribute to the way children adapt to the social environment during preschool age.

Key words: Preschool age, play, leading activities, cognitive processes, communication, basic psychological novelty.

KIRISH

Maktabgacha yosh davri inson hayotining eng muhim davri hisoblanadi. Ushbu davrda bola o'zining atrof-muhitiga moslashadi, shaxsiyati shakllanadi va ijtimoiy ko'nikmalarni egallaydi. Hayotning aynan shu bosqichida bola dunyoni kashf etish, o'zini va boshqalarni tushunish, o'zaro munosabatlar qoidalarini o'rganish kabi jarayonlarni boshdan kechiradi. Maktabgacha davr, shuningdek, bolaning emotsional rivojlanishi uchun poydevor yaratadi.

Bolalar bu yoshda asosiy ijtimoiy tajribalarni oilada va atrof-dagilar bilan muloqotda orttiradi. Bu tajribalar kelgusida uning shaxsiyati va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zlarini atrof-muhitga moslashtirishi jarayoni katta ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy muhit, jumladan oila, bog'cha, qo'shnilar va boshqa jamiyat vakillari bilan bo'ladigan munosabatlar, bolaning qobiliyatlarini shakllantirishda va uning shaxsiyatini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Hayotining dastlabki yillarida bola qabul qilgan tajribalar va bilimlar uning kelgusi rivojlanishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Bola o‘zini atrof-muhit bilan uyg‘unlashtirishni o‘rganar ekan, bu jarayonning qanchalik samarali kechishi ko‘p jihatdan ota-onalar va pedagoglarning munosabati, shuningdek, uning individuallik xususiyatlariga bog‘liq. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy muhitga moslashish jarayonlari, bu jarayonga ta’sir etuvchi omillar va moslashuvni osonlashtirish yo‘llari batafsil ko‘rib chiqiladi.

Asosiy qism.

Maktabgacha yosh davri. 3 yoshdan 7 yoshgacha organizmning intensiv o‘sishi davom etadi. Bosh miya og‘irligi 1350g-gacha yetadi, ikkinchi signal sistemasi rivojlanadi. Bolaning ijtimoiy situatsiyasi o‘zgaradi. O‘yin faoliyati – bu yosh davrining yetakchi faoliyat turidir. Rolli o‘yinlar jarayonida ular katta odamlarning barcha vazifa va ishlarini amalda bevosita bajaradilar. Rolli o‘yinlarni vujudga keltiruvchi eng zarur omillardan biri, bolada o‘z xatti-harakatlarini kattalar xatti-harakati bilan solishtirish, undan nusxa olish tuyg‘usining mavjudligidir. Bolalarning o‘yin faoliyati D.B.Elkonin, A.S.Slavina, A.P.Usova va boshqa psixologlar o‘rganishgan. O‘yin faoliyati ixtiyoriy diqqat va xotiraning, tafakkurning rivojlanishini belgilab beradi. Bola predmet va harakatlarni birlashtirishni o‘rganadi. Bolaning hayoli ham faqat qiyin faoliyatdagina rivojlana boshlaydi. 3 yoshdan 7 yoshgacha barcha bilish jarayonlari o‘sadi, sezgirlik kuchayadi, bola sensor etalonlarni o‘zlashtiradi, xotiraning hajmi o‘sadi. Ilk bolalik davrida ko‘rgazmali harakatli tafakkur va sekin-asta mantiqiy tafakkur shakllari etakchi rol o‘ynay boshlaydi. Bolaning tafakkuri tarli faoliyatlarda, xususan, o‘yin faoliyatida rivojlanadi. Predmetlarni ularning simvollari bilan almashtirish yuz beradi. Bilish jarayonlari va o‘yin faoliyati bola nutqini rivojlantiradi. Bolaning nutqi situativ xarakterga ega, maktabgacha yosh davrining oxiriga kelib esa u o‘z ona tilini, grammatik tuzilishini yaxshi o‘zlashtiradi, ichki nutq paydo bo‘ladi, nutq alohida faoliyat tarzida shakllanadi (M.R.Xalilova. 2005).

Bola shaxsining rivojlanishida ham o‘zgarishlar yuz beradi. Uning shaxsiy xulq-atvori aktivligida esa motivlar ierarxiyasi paydo bo‘la boshlaydi. O‘zining va tengdoshlarining ishlarini baholay boshlaydi. Shu tarzda o‘z-o‘zini baholash yuzaga keladi. Maktabgacha yosh davr davomida maktab ta’limiga tayyorlik shakllanadi. 6 yoshli bolada bilimga qiziqish, (narsa va hodisalarning xossalarini qidirish va



taqqoslash, ajablanish) oddiy aqliy operatsiyalarni bajara olish qobiliyati shakllangan bo‘lishi, emotsional g‘ayriirodaviy jihatlari, muloqot ko‘nikmalari yetarlicha bo‘lishi kerak.

Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo‘lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o‘zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o‘sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog‘i kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog‘cha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o‘zlashtirish, elementar gigiyena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilishga qaratilishi lozim bo‘ladi. Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog‘cha yoshidagi davri shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi. Bog‘cha yoshidagi bolalarning ko‘zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko‘rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi va charchaydi. Kattalar va tengdoshlari bilan bo‘lgan munosabat orqali bola axloq me‘yorlari, kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog‘cha yoshidagi bola endi o‘z gavdasini yaxshi boshqara oladi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan holda bo‘ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi, u yangiliklarni egallashga nisbatan o‘z bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi, o‘zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik, shu davrdagi bolalarga xos xususiyat hisoblanadi.

Hech bir yosh davri ushbu yosh davridagidek shaxslararo hamkorlikning turli shakllarini talab qilmaydi, chunki u bola shaxsining turli jihatlarini rivojlanishi zarurati bilan bog‘liqdir. Bu tengdoshlari, kattalar bilan hamkorlik, o‘yinlar, muloqot va birgalikdagi mehnatidan iboratdir. Bu yosh davri davomida bolalarning quyidagi asosiy faoliyat turlari izchillikda takomillashib boradi: predmetlar bilan boshqarish o‘yini, konstruktiv tipdagi individual predmetli o‘yin, jamoaviy syujetli-

rolli o‘yinlar, individual va guruhiy ijod, o‘yin-musobaqa, o‘yin-muloqot, uy mehnati. Maktabga chiqishdan bir yoki ikki yil avval ularga o‘quv faoliyati qo‘shiladi va 5-6 yoshli bola eng kamida faoliyatning 7-8 turiga tortiladi, ularning har biri bolani o‘ziga xos ravishda intellektual va axloqan rivojlanishiga ko‘maklashadi. Bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yinlari atrofdagi narsa va hodisalarni bilish quroli bo‘lishi bilan birga, yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham egadir. Boshqacha qilib aytganda, o‘yin qudratli tarbiya quroli hamdir. Bolalarning o‘yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya‘ni yuksak insoniy xislatlarni tarbiyalash mumkin bo‘ladi. Agarda biz bolalarning o‘yin faoliyatlarini tashqaridan kuzatsak, o‘yin jarayonida ularning barcha shaxsiy xususiyatlari (xarakteri, kimning nimaga ko‘proq qiziqishi, qobiliyati, irodasi, temperamenti) yaqqol namoyon bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin. Shuning uchun bolalarning o‘yin faoliyatlari, ularni individual ravishda o‘rganish uchun juda qulay vosita hisoblanadi. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar odatda o‘zlari yolg‘iz o‘ynaydilar. Predmetli va konstruktorli o‘yinlar orqali bu yoshdagi bolalar o‘zlarining idrok, xotira, tasavvur, tafakkur hamda harakat layoqatlarini rivojlantiradilar. Syujetli-rolli o‘yinlarda bolalar, asosan, o‘zlari har kuni ko‘rayotgan va kuzatayotgan kattalarning xatti-harakatlarini aks ettiradilar. 4-5 yoshli bolalarning o‘yinlari asta-sekinlik bilan jamoa shakliga ega bo‘lib boradi. Bolalarning individual xususiyatlarini, ularning jamoa o‘yinlari davomida kuzatish qulaydir. O‘z o‘yinlarida bolalar kattalarning predmetlarga munosabatiningina emas, balki ko‘proq ularning o‘zaro munosabatlarini ham aks ettiradilar va ularga taqlid qilib harakat qiladilar (Z.T. Nishanova. 2018).

Xulosa

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy muhitga moslashuvi ularning kelajakdagi shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishining muhim asosini tashkil etadi. Bu jarayon bolalarning dunyoni o‘zlashtirishi, o‘zini anglash, va boshqa insonlar bilan muloqot qilish qobiliyatlarini shakllantiradi. Ijtimoiy muhit, xususan, oila, bog‘cha va jamiyatning boshqa ishtirokchilari bolaning rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Shu bilan birga, bolaning individual xususiyatlari, shuningdek, uning atrofidagi muhitning ijobiy ta‘siri, moslashuv jarayonini yengillashtiradi va muvaffaqiyatli amalga oshishiga zamin yaratadi. Pedagoglar va ota-onalar tomonidan bolaga qulay va qo‘llab-quvvatlovchi muhit taqdim etilishi, uning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.



Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bolalarning ijtimoiy muhitga moslashishi nafaqat ularning hozirgi, balki, kelajakdagi hayotida muvaffaqiyatli va faol shaxs sifatida shakllanishiga hissa qo‘shadi. Bu jarayonni samarali boshqarish uchun oila, ta’lim muassasalari va jamiyatning birgalikdagi harakati zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. M.R.Xalilova. Yosh va pedagogik psixologiya fanidan ma`ruzalar matni. Navoiy davlat pedagogika instituti, 2005.
2. Z.T. Nishanova va boshqalar. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Toshkent: « O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018.
3. L. E. Berk Bolalar rivoji. Pearson Education, 2013.
4. L. S. Vigotskiy. Jamiyatda ong: Yuqori psixologik jarayonlarning rivojlanishi. Garvard Universiteti Nashriyoti, 1978.
5. J. Piage. Bolalarning aql-idroki. Xalqaro Universitet Nashriyoti, 1952.



Research Science and Innovation House